

**O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Mannopova Muazzam Sultonbekovna

Farg‘ona davlat universiteti,
Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi.

Abdullaeva Shaxnoza Esonovna

Farg‘ona davlat universiteti,
Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

**ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА
В УЗБЕКИСТАНЕ**

Маннопова Муаззам Султонбековна

Ферганский государственный университет,
ст.преп. кафедры Мировой и региональной экономики

Абдуллаева Шахноза Эсоновна

Ферганский государственный университет,
преподаватель кафедры Мировой и региональной экономики

**FEATURES OF THE FORMATION OF THE INVESTMENT CLIMATE IN
UZBEKISTAN**

Mannopova Muazzam Sultanbekovna

Senior Lecturer, Department of World and Regional Economy,
Fergana State University.

Abdullaeva Shakhnoza Esonovna

Lecturer, Department of World and Regional Economy,
Fergana State University.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotidainvestitsiya muhitining shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun soliq imtiyozlari va bojxona to‘lovlaridan ozod qilishning asoslari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy iqtisodiyot, investitsiya, investitsiya xatari, soliq imtiyozlari, preferensiya, bojxona boji.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri - bu iqtisodiy o‘shishga erishish, aholi uchun yuqori darajadagi turmush tarzini ta‘minlaydigan samarali iqtisodiyotni yaratish va global iqtisodiy hamjamiyatda faol ishtirok etishini ta‘minlashdir. Buning uchun esa, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uni qayta qurish va yangi texnika-

texnologiyalar bilan ta'minlash uchun investitsiyalar zarurligini taqozo etadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalar zahirasida va ishlab chiqarishni rivojlantirishga mablag' kiritish uchun o'zining etarli darajada sarmoyasining yo'qligi milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga to'sqinlik qilganligi uchun, milliy iqtisodiyot uchun investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga egadir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy boshqaruvning bozor tizimiga o'tishi investitsiya jarayonining yangi modelini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, qulay investitsiya muhiti turli davlat, xususiy va xorijiy manbalardan foydalangan holda investitsiyalar o'sishini rag'batlantiradi. Globalashuv sharoitida investitsiyalar o'sishi ilmiy va texnologik salohiyatga bog'liq bo'lib, u har qanday mamlakat uchun iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikada investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 12 dan ortiq qonun, 60 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlarining 2017-2022 yillarda O'zbekistonda qulay investitsion muhitni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahliliga ko'ra, 2016 yilda fuqarolari mamlakatimizga vizasiz kirib chiqa oladigan mamlakatlar soni 9 tani tashkil qilgan. Viza tizimi isloh qilinishi natijasida bunday mamlakatlar soni 2022 yilda 90 tadan ortdi. SHuningdek, investorlar va ularning oila a'zolari uchun alohida "investitsion viza" tizimi joriy qilindi. Amalga oshirilgan islohotlar o'z natijasini bermasdan qolmadi. Masalan, 2017-2022 yillarda O'zbekiston Xalqaro iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'rindan 117- o'ringa ko'tarildi. 2017 yilda iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 14 milliard AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 1,7 barobar oshib, 24 milliard AQSH dollarga etdi. Bugungi kunda jahonning 50 dan ortiq mamlakati O'zbekistonga barqaror tarzda investitsiya kiritmoqda. Ular iqtisodiyotimizning asosan metallurgiya, energetika, kimyo sanoati, elektrotexnika, mashinasozlik, engil sanoat tamoqlarida faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda xorijiy investorlarga imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish, shuningdek, chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan asosiy qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari qabul qilingan. Xususan, investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun quyidagicha imtiyozlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topadi:

1. O'zbekiston Respublikasining «Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan:

- mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha chetdan keltiriladigan qurilish materiallarini bojxona to'lovlaridan

(bundan qo'shimcha qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imler mustasno);

- maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarish va mahsulotlarni eksportga realizatsiya qilish uchun foydalanadigan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imler mustasno);

- tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha texnologik uskunalarning o'xshashi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydiganini olib kirishda bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imler mustasno).

Ushbu imtiyozlar imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar — 3 yil muddatga;

- 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar — 5 yil muddatga;

- 5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar — 7 yil muddatga;

- 10 million va undan ko'p AQSH dollari hajmidagi investitsiyalarga— 10 yil muddatga beriladi.

2. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar quyidagilardan tashkil topadi:

- O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan (20.03.2018 yildagi Adliya Vazirligining 2436-sonli qarordagi ro'yxatga asosan) texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni etkazib berish texnologik asbob-uskunalarini etkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi.

3. Boj to'lovi bo'yicha imtiyozlar esa quyidagilardan tashkil topgan:

- Ustav fondida (ustav kapitalida) chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

- chet ellik investorlar, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashaydigan fuqaroligi

bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSH dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani amalga oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, basharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa;

- mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lgan mahsulotga boj to'lovlaridan imtiyoz qo'llaniladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishi va insonlarning turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ishchi kuchi mavjud bo'lgan hududlarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar keng jalb etilmoqda. Bilamizki, tavakkal qilmaguncha tadbirkor bo'lishning imkoni yo'q. Ayniqsa, ishbilarmonlarning boshqa bir davlatda faoliyatini yo'lga qo'yishi esa ikki karra tavakkalchilik deganidir. Buning uchun esa iqtisodiyot sub'ektlarining yuqori bilimga ega bo'lishini va investitsion xavf-xatarlarni chuqur o'rganib iqtisodiy xatti-xarakatlarini amalga oshirilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo'nalishida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёш аҳолини ўқитиш ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери – истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами. Андижон*, 1(7), 106-109.

4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК. г.Москва, 1(9), 23-25.*
5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириши: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона, 1(6), 124-127.*
6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг беқиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси, 1(1), 44-47.*
7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт, 1(6), 48-52.*
8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).
9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом, (16), 175-180.*
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум, 10, 89.*
12. Mannopova, M. S. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
13. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ– ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje., 29, 117-120.*

15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
19. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мевасабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Юлдашева, Г. А., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Инновации в рамках национальных инновационных систем. *Интернаука*, (26), 6-8.
22. Abdullaeva, S. E. (2021). The urgency of attracting investment to banks. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 435-440.
23. Абдуллаева, Ш. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 506-512).
24. Абдуллаева, Ш. Э., & Жакбарова, З. С. (2020). РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 345-350).
25. Абдуллаева, Ш. Э. (2019). Современное состояние и перспективы развития банковской системы в Узбекистане. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 180-182.
26. Khakimov, D. R., Kurbanov, D., & Khalildinov, A. A. (2022). Formation of New Economic Mechanisms in the Field of Education. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 76-81.

27. Raximov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFYING INNOVATION PROCESSES IN THE INDUSTRY NETWORK. *World Economics and Finance Bulletin*, 16, 107-110.

28. Khakimov, D. R., Khalildinov, A. A., & Abdullaeva, S. E. (2022). THE MAIN FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MARKET RELATIONS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 94-100.

29. Қурбонов, Д. Х. (2022). Олий таълим соҳосида бозор муносабатлари ривожланишининг асосий омиллари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 39-41.

30. Khalildinov, A. A., & Ashurov, S. S. (2022). The Importance of Rational Use of Natural Resources in the Economy and Specific Features of its Management. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 82-85.

31. Халилдинов, А. А. (2021). Иқтисодий рақамлаштиришда инновациялар. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 1(6), 296-301.

32. Халилдинов, А. А. (2021). Инвестиция сиёсатининг асосий йўналишлари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 146-150.

33. Хакимов, Д. Р. (2022). Олий таълим тизимида янги иқтисодий механизмларни шакллантириш. *Biznes-эксперт*, 1(6), 34-39.

34. Халилдинов, А. А. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Journal of new century innovations*, 21(2), 87-96.